



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **JIZZAX VILOYATI MAHALLALARINING UMUMIY TAVSIFI VA DEMOGRAFIK JARAYONLARI**

**Qosimov Azimjon Sanaqul o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Jizzax viloyati mahallalari va ularning faoliyati bilan bog'liq dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Mahalla institutining jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni, uning tarixiy ildizlari va huquqiy asoslari Jizzax viloyati misolida yoritiladi. Jizzax shahri hamda Baxmal, Zomin, Zarbdor, Do'stlik kabi tumanlardagi mahallalarning shakllanish tarixi, nomlanish xususiyatlari (toponimika) va hududning etnik tarkibi tizimli ravishda tahlil etiladi. Shuningdek, mustaqillik yillarida mahalla institutini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada uning huquqiy maqomi oshirilgani ham ko'rsatib beriladi. Tadqiqot hududiy tarix, ijtimoiy boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimlarini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** mahalla instituti, Jizzax viloyati, toponimika, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ijtimoiy-ma'naviy muhit, tarixiy manzilgohlar, oqsoqollar kengashi, etnik tarkib, Sangzor daryosi, konstitutsiyaviy islohotlar, "Obod qishloq" dasturi, shahar guzarlari, hududiy birlik, milliy qadriyatlar.

## **ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МАХАЛЛЕЙ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ И ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ**

**Косимов Азимжон Санакул угли**

Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель

### **Аннотация**

В статье анализируются актуальные вопросы, связанные с деятельностью махаллей Джизакской области. Рассматривается роль института махалли в социально-духовной жизни общества, его исторические корни и правовые основы на примере региона. Представлен системный анализ истории формирования махаллей города Джизак и районов (Бахмаль, Заамин, Зарбдор, Дуслик и др.), их топонимических особенностей и этнического состава населения. Также освещаются реформы, направленные на развитие института махалли в годы независимости, а также повышение его правового статуса в новой редакции Конституции. Исследование представляет интерес для специалистов в области региональной истории и социального управления.

**Ключевые слова:** институт махалли, Джизакская область, топонимика, органы самоуправления граждан, социально-духовная среда, исторические поселения, совет старейшин, этнический состав, река Сангзор, конституционные реформы, программа «Обод кишлок», городские кварталы, территориальные единицы, национальные ценности.

## **GENERAL CHARACTERISTICS OF MAHALLAS IN JIZZAKH REGION AND DEMOGRAPHIC PROCESSES**

**Qosimov Azimjon Sanaqul ogli**

Jizzakh State Pedagogical University, Teacher

### **Abstract**

This article analyzes key issues related to the activities of mahallas in the Jizzakh region. It examines the role of the mahalla institution in the socio-spiritual life of society, its historical roots, and legal foundations based on regional examples. The study systematizes information on the formation of mahallas in Jizzakh city and districts such as Bakhmal, Zomin, Zarbdor, and

Dustlik, including their toponymic features and ethnic composition. It also highlights reforms implemented during the independence period to strengthen the mahalla system and enhance its legal status under the new Constitution. The research is relevant for scholars interested in regional history and social governance.

**Keywords:** mahalla institution, Jizzakh region, toponymy, self-governance bodies, socio-spiritual environment, historical settlements, elders' council, ethnic composition, Sangzor River, constitutional reforms, "Obod Qishloq" program, urban quarters, territorial units, national values.

Mahalla – inson aql-zakovatining mahsuli bo‘lib, tabiat va jamiyatdagi hodisalarni kuzatish asosida odamlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi hamda munosabatlari madaniy taraqqiyotining rivojlanishiga imkon yaratgan, aql va idrok bilan ish yuritishni ta‘minlagan ijtimoiy tuzilmadir. “Mahalla” so‘zi arabcha “mahallun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzolari degan ma‘noni bildiradi. Mahallalar shahar ichidagi aholi yashaydigan manzilgoh, guzar hisoblanadi [3:29]. Mahalla o‘tmishdan meros bo‘lib kelmoqda. Mahallalarda istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo‘ni-qo‘shnichilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, ma‘naviyat, axloqiy normalar va majburiyatlar bilan chambarchas bog‘langan holda hayot kechirganlar. Shu bilan birga, mahalla uning a‘zolarini yagona oilaga birlashtiruvchi o‘ziga xos tarbiya maskani hamdir. Qadim zamonlardayoq mahallaga el ishonchini, hurmatini qozongan oqsoqollar, uning maslahatgo‘ylari boshchilik qilib kelishgan. Katta-kichikning boshini qovushtirib, mahalladoshlarning og‘irini yengillashtirish, ularning to‘y-ma‘rakalari, rasm-rusumlarini o‘tkazishga, ro‘zg‘or buyumlari bilan ta‘minlashga bosh-qosh bo‘lishgan. Mahalla oqsoqollari oilaviy nizolarni bartaraf etishga, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishga hakamlik qilishgan. Yoshlarni tarbiyalashda, ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishda ham muhim rol o‘ynashgan. Mahallada har qanday marosimlar ko‘pchilikning sa‘y-harakati bilan amalga oshirilgan. Bas, shunday ekan, mahalla azaldan kishilarning ezgulik va o‘zaro mehr-oqibat maskani bo‘lib xizmat qilgan [4:126].

Mahalla fuqarolik jamiyati instituti sifatida qator muhim vazifalarni bajarib, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va kuchaytirish, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tenglikni saqlashga yordam beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda mahalla aholisining barcha qatlamlarini himoya qiladigan, ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan ijtimoiy institutga aylandi. Mustaqillik tufayli davlatning mahallaga bo‘lgan munosabati ham tubdan o‘zgardi. Milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yildi. 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mahallaning huquqiy maqomi yanada oshirildi [1:127].

### **Adabiyotlar tahlili**

1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi [2:11]. Mahalla institutini yanada takomillashtirish, uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini tubdan oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun keyinchalik ikki marta, ya‘ni 1999-yil 14-aprelda hamda 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilindi [2:12]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevralda qabul qilingan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-aprelda qabul qilingan “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari asosida mahalla institutiga milliy davlatchiligimizning asosiy quyi bo'g'ini sifatida qaralib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı va puxta o'ylangan islohotlar amalga oshirildi.

Jizzax shahri Jizzax viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Sangzor daryosi bo'yida, dengiz sathidan 460 metr balandlikda joylashgan. Toshkent-Samarqand temir yo'li, Katta O'zbekiston trakti yoqasida joylashgan. Maydoni 100 kvadrat kilometr. Aholisi 202,6 ming kishi (2025-yil). Asosan o'zbeklar, shuningdek, rus, tatar, ukrain, eroniy va boshqa millat vakillari yashaydi [5:16]. Jizzax shahrining Olmazor, Toshloq, Ulug'bek, Zargarlik, Kimyogar, Bobur, Hamzaobod, O'ratepalik, Hayrobod, Ravallik kabi zamonaviy guzarlari mavjud. Shahardagi 280 ga yaqin ko'chaning uzunligi qariyb 240 kilometrni tashkil qiladi. Shahardagi Alisher Navoiy mahallasi Oxunboboyev nomi bilan 1968-yilda tashkil topgan. 1992-yilda unga Alisher Navoiy nomi berilgan [6:1]. Amir Temur nomli mahalla 1991-yilda tashkil topgan bo'lib, Nurota va Turkiston tog' tizmalarini ajratib turadigan Ilono'tti darasining Jizzax shahri hududiga tutash qismida joylashgan. Milliy tarkibi 8 millat vakillaridan iborat. Mahalla tarkibida 12 ta ko'cha, 70 ta ko'p qavatli uy mavjud. Bog'ishamol mahallasi 1997-yilda "Bunyod" mahalla fuqarolar yig'ini nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, 2017-yilda unga "Bog'ishamol" nomi berilgan [6:2].

Bunyodkor mahallasi esa 2009-yil 9-sentabrda Yoshlik mahallasi tarkibidagi hududda tashkil topgan, bu yerda 11 millat vakillari istiqomat qiladi. Tarkibida 48 ta ko'cha bor. Do'stlik mahallasi 2005-yil 31-avgustda tashkil topgan. Milliy tarkibi 13 ta millat vakillaridan iborat. Mahalla tarkibiga 35 ta ko'cha va 4 ta ko'p qavatli uy qaraydi [6:3].

"Yoshlik" mahallasi 1992-yilda "Yoshlik" mahalla fuqarolar yig'ini nomi bilan tashkil qilingan. Dastlab 3-kichik tuman deb atalgan maskan bo'lgan. Aholi milliy tarkibi baynalmilal bo'lib, 17 millat vakillaridan iborat. Mahalla tarkibida 5 ta ko'cha, 37 ta ko'p qavatli uy bor. Jizzaxlik mahallasi shaharning eng qadimiy mahallalaridan biri hisoblanadi. Jizzaxlik mahallasi rasman 1978-yilda tashkil topgan [7:448.18.47.2]. Uning chegarasi bir necha bor o'zgargan bo'lsa-da, nomi o'zgarmagan. "Jizzaxlik" mahallasi vakillari o'zlarini shaharning tub aholisi deb hisoblaydilar.

Zargarlik mahallasi Jizzax shahridagi qadimiy mahallalardan biridir. Mahalla fuqarolar yig'ini rasman 1982-yilda tashkil topgan. U shaharning eski shahar qismidagi mahalla bo'lib, ushbu hududda qadimda zargarlar yashaganligi sababli Zargarlik mahallasi deb atalgan. "Zilol" MFY esa 1994-yilda Jizzax shahrining yangi massivida tashkil etilgan mahalla hisoblanadi.

"Ittifoq" mahalla fuqarolar yig'ini 1993-yilda tashkil etilgan. Hudud ilgari 3/2 mikrotuman nomi bilan yuritilgan. Milliy tarkibi ko'p millatli bo'lib, bu yerda 19 millatga mansub aholi yashaydi. Mahalla tarkibida 2 ta ko'cha, 71 ta ko'p qavatli uy mavjud. "Kimyogar" MFY 1994-yilda mahalla fuqarolar yig'ini nomi bilan tashkil qilingan. Mahalla aholisining ko'pchiligi shahardagi kimyo kombinatida ishlagani tufayli "Kimyogarlari" mahallasi deb nomlangan [7:448.19.48.1]. Bu yerda 7 millat vakillari yashaydi.

Bundan tashqari, viloyatning bir qator mahallalari ham mavjud bo'lib, ularning rivojlanishi qadim davrlarga borib taqaladi. "O'ratepalik" mahalla fuqarolar yig'ini hududi dastlab "Oktabr" qishloq soveti tarkibida bo'lgan. 1993-yilda "O'ratepalik" mahalla fuqarolar yig'iniga aylantirilgan. Nijonlik Jizzax shahri mahallalaridan biridir. Nijon — Tojikistondagi Ustrushona (O'ratepa) shahridan shimolroqda bo'lgan bir qishloq. Jizzaxda O'ratepa va uning atroflaridan ko'chib o'rnashgan kishilar mahallasi O'ratepalik deb atalgan [8:124].

O'ratepalik mahallasi Uchariq, Ravallik, Oqqo'rg'onlik, Obod, Toshloq, Zargarlik, Qassoblik va Sh. Rashidov tumani Ravallik, Yakka qayrag'och mahallalari bilan chegaradosh. Hamid Olimjon nomli mahalla esa 1990-yilda tashkil etilgan [6:4]. Mahallada 19 ta ko'cha

mavjud. U shahardagi A. Navoiy, Sangzor, Xayrabod, Tinchlik va Ulug'bek mahallalari bilan chegaradosh. Mahalla hududidan Sangzor daryosi va Kangli arig'i o'tgan.

Jizzax viloyatining Arnasoy tumani 1975-yil 26-noyabrda tashkil topgan. Shimol va shimoli-g'arbda Forish, janubda Zafarobod, janubi-sharqda Paxtakor, sharqda Do'stlik, shimoli-sharqda Mirzacho'l tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 490 kvadrat kilometr. Aholisi 50 mingdan ortiq kishi (2025-yil). Asosan o'zbeklar, shuningdek, rus, qozoq, tojik, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholi zichligi 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 98 kishini tashkil etadi. Tumanda 13 ta fuqarolar yig'ini: Baxtli, Bobur, Bo'ston, Gulbahor, Do'stlik, Zarafshon, Oltin vodi, Tinchlik, Chinobod, Cho'lquvar, Yangi Bo'ston, G'oliblar, G'ofur G'ulom kabi mahallalar mavjud.

Baxmal tumani 1943-yil 8-mayda tashkil etilgan [7:448.19.48.1] (1957-yil 12-oktabrda G'allaorol bilan birlashtirilgan edi, 1971-yil 31-avgustda qayta tuzildi). Baxmal tumani G'allaorol, Jizzax, Zomin tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Markazi Usmat shaharchasi bo'lib, tumanda 34 ta mahalla (qishloq) fuqarolari yig'ini faoliyat yuritadi. Ular orasida Baxmal, Bog'ishamol, Barlos, Bunyodkor, Gulbuloq, Istiqlol, Madaniyat, Molguzar, Muzbuloq, Mustaqillik, Mo'g'ol, Navbahor, Novqa, Nurafshon, Nurobod, Nushkent, Oyqor, Oqtosh, Sangzor, Saroy kabi mahallalar mavjud [8:118–124; 7:5].

Do'stlik tumani 1970-yil 26-noyabrda tashkil etilgan. Viloyatning Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 4500 kvadrat kilometr. Aholisi 71,9 ming kishi (2026-yil). Bir kvadrat kilometrda 15,2 kishi to'g'ri keladi. Aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lib, shuningdek, rus, qozoq, tatar va boshqa millat vakillari yashaydi [5:16].

Do'stlik tumani markazi Do'stlik shahri bo'lib, tumanda 1 shahar va 12 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Bog'zor, Bunyodkor, Manas, Mevazor, Alisher Navoiy, Navro'z, Yangiobod, Saritepa, Sanoatchilar, Chinobod, Qahramon, G'ofur G'ulom kabi fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatmoqda. "Manas" mahallasi 2012-yilda aholi milliy tarkibi hisobga olinib, qirg'iz xalqining milliy qahramoni Manas nomi bilan atalgan. Mazkur qishloq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda "Obod qishloq" dasturini tatbiq etishda namuna sifatida birinchi bo'lib yangilangan qishloq sifatida tarixga kirgan.

Zarbdor tumani 1979-yil 4-dekabrda tashkil etilgan. Shimoli-sharqda Sirdaryo viloyati, g'arbda Sh. Rashidov tumani, sharqda Yangiobod tumani, janubda Zomin tumani bilan chegaradosh. Maydoni 710 kvadrat kilometr. Aholisi 98,3 ming kishi (2026-yil). 1 kvadrat kilometrda 130 kishi to'g'ri keladi. Asosan o'zbeklar, shuningdek, tojik, qozoq, rus, ukrain, qirg'iz, turkman, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Markazi Zarbdor shaharchasi bo'lib, tumanda 24 ta mahalla fuqarolari yig'ini va 2 ta shaharcha (Bo'ston, Zarbdor) mavjud [7:448.1.18.71]. Tumanda Adirobod, Alisher Navoiy, Andijon, Do'stlik, Yoshlik, Lalmikor, Mustaqillik, Navro'z, Navbahor, Nurobod, Nurafshon, Oybek, Oqbuloq, Ravot, Taraqqiyot, Tinchlik, Toza urug', Toshkesgan, Sharq yulduzi, Shodlik, Yangikent, Yangi hayot, Yangiobod kabi mahallalar mavjud [7:1; 10:15].

Jizzax viloyatining Zafarobod tumani 1973-yil 12-aprelda tashkil etilgan. Janubda Jizzax tumani, shimoli-g'arbda Arnasoy va Do'stlik tumanlari, shimolda Forish tumani, sharqda Paxtakor tumani bilan chegaradosh. Maydoni 521,5 kvadrat kilometr. Aholisi 57,1 ming kishi (2026-yil). Asosan o'zbeklar, shuningdek, tojik, qozoq, rus, tatar, qirg'iz va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Markazi Zafarobod shaharchasi bo'lib, tumanda 1 shaharcha va 10 ta mahalla fuqarolar yig'ini faoliyat yuritadi.

Tumanda Birlik, Bo'ston, Yorqin, Lolazor, Nurafshon, Pistalikent, Samarqand, Uzun, Cho'lguliston, Chimqo'rg'on kabi mahallalar mavjud [7:2]. Zomin tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Jizzax tumani bilan birlashtirilgan, 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan). Shimolda viloyatning Zarbdor tumani, g'arbda Baxmal va Sh. Rashidov tumanlari, sharqda va shimoli-sharqda Yangiobod tumani, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi

bilan chegaradosh. Maydoni 2670 kvadrat kilometr. Aholisi 188,1 ming kishi (2026-yil). Asosan o'zbeklar yashaydi. Shuningdek, qirg'iz, rus, tatar, tojik va boshqa millat vakillari ham mavjud. Bir kvadrat kilometrga 65,6 kishi to'g'ri keladi. Markazi Zomin shaharchasi bo'lib, tumanda 2 shaharcha (Dashtobod, Zomin) va 39 ta mahalla fuqarolari yig'ini bor [7:440.15.39.7].

Zomin tumanida Navoiy, Baxt, Beshkubi, Bunyodkor, Birlik, Bog'ishamol, Tinchlik, Gulshan, Duoba, Yoshlik, Istiqlol, Mustaqillik va boshqa mahallalar mavjud. Mirzacho'l tumani esa 1967-yil 9-yanvarda tashkil etilgan. Shimoldan Qozog'iston, shimoli-sharqdan Sirdaryo viloyati, janubdan Jizzax viloyatining Do'stlik, g'arbdan Forish va Arnasoy tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 480 kvadrat kilometr. Aholisi 55,4 ming kishi (2026-yil). Bir kvadrat kilometrga 113,5 kishi to'g'ri keladi. Markazi Gagarin shahri bo'lib, tarkibida 8 ta mahalla fuqarolari yig'ini mavjud.

Tumanda Bog'bon, Gulzor, Do'stlik, Yerjar, Ipak yo'li, Mirzadala, Mustaqillik, Paxtazor, Yangidala, G'alaba kabi mahallalar faoliyat olib boradi. "Obod qishloq" dasturi asosida 2018-yil aprel-oktabr oylarida Gagarin shahri va G'alaba, O'zbekiston, Mustaqillik, Mirzadala, Do'stlik, Bog'bon mahallalari tubdan yangilandi va obod bo'ldi. Paxtakor tumani 1967-yil 9-yanvarda Mirzacho'l janubi-g'arbidagi o'zlashtirilgan yerlar negizida Sirdaryo viloyati tarkibida tashkil etilgan [7:448.1.26.8]. 1974-yilda Jizzax viloyati tashkil etilishi munosabati bilan ushbu viloyat tarkibiga o'tkazilgan. G'arbda Zafarobod va Arnasoy, shimolda Do'stlik, sharqda Sirdaryo viloyatining Sardoba tumani hamda viloyatning Zarbdor, janubda Sh. Rashidov tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,38 ming kvadrat kilometr. Aholisi 83,8 ming kishi (2026-yil). Asosan o'zbeklar, shuningdek, qozoq, rus, ukrain va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Bir kvadrat kilometrga o'rtacha 208 kishi to'g'ri keladi. Paxtakor tumanida 1 ta shahar (Paxtakor) va 15 ta mahalla fuqarolari yig'ini bor [7:440.27.68.143]. Markazi Paxtakor shahri.

Tumanda Bog'ishamol, Buyuk ipak yo'li, Dilorom, Do'stlik, Mingchinor, Nurli Pangat, Olmazor, Oltinko'l, Oqbuloq, Paxtakor, Suvonobod, Samarqand, Toshkent, Chamanzor, G'alaba kabi mahallalar mavjud. Umuman olganda, Jizzax viloyatidagi mahallalar tizimi o'zining tarixiy shakllanishi, nomlanish xususiyatlari, etnik tarkibi va hududiy tuzilishi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mahalla nafaqat ma'muriy-hududiy birlik, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy hayot tarzini aks ettiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo'ladi. Viloyatdagi mahallalar nomlari ko'pincha tarixiy voqealar, urug'-qabila nomlari, geografik xususiyatlar, mashhur shaxslar yoki hudud aholisi faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu esa mahallalarni tarixiy-etnografik va sotsiomadaniy jihatdan o'rganish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. — 2013-yil 22-aprel.
3. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi (Jizzax shahri haqida tarixiy lavha va xotiralar). — T.: O'qituvchi, 2009. — B. 29.
4. Bo'riev O., Saidov B. Mahalla — milliy tarixiy instituti. — Toshkent: Yangi nashr, 2012. — B. 126.
5. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi. — Toshkent, 2025. — B. 16.
6. Jizzax shahar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari pasportlari. — 2026-yil.
7. Jizzax viloyati davlat arxivi ma'lumotlari (1991–2026-yillar).
8. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2005. — B. 124.
9. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. — B. 119.
10. Xakimov Q. M. Jizzax viloyat toponimlari. — B. 15.
11. Qosimov A. Mustaqillik yillarida Jizzax mahallalari // QarDU xabarlar. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. — 2023. — 4/2(60), iyul–avgust.